

1. Rus tili o'qituvchisi Dilorom opa darsdan keyin o'zini tahlil qiladi: "O'quvchilarga mavzuni tushuntirishda men juda tez gapirdimmi?", "Qiziqarli topshiriqlar yetarlimi?", "Men o'quvchilarning his-tuyg'ularini hisobga oldimmi?". Shu savollar orqali u o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini angelaydi va kelgusi darslarni yanada samarali qilish uchun qarorlar qabul qiladi.

Dilfuza opaning o'z xatti-harakati, qarorlari, his-tuyg'ulari va dars jarayonidagi faoliyatini tahlil qilishi nima deyiladi?

A) Pedagogik mahorat

B) Pedagogik bilimdonlik

C) Pedagogik nazokat

D) Pedagogik refleksiya

2.

Педагогик рефлексия – педагогнинг шахс онги моҳияти, вазифалари, кадриятлари, кизиқишлари, рағбатлантирувчи омиллар, фикрлаш, идрок, қарорлар қабул қилиш, ҳиссий таъсирланиш, хатти-ҳаракатлари ва бошқаларнинг моҳиятини англаб етиши

Pedagogik relaksatsiya turlarini aniqlang.

1. Harakatli relaksatsiya

2. Musiqiy relaksatsiya

3. Tasavvur relaksatsiya

4. Nutqiy relaksatsiya

5. Ijodiy relaksatsiya

6. Mantiqiy relaksatsiya

A) 1,2,4,5,6

B) 1,3,4,5,6

C) 2,3,4,5,6

D) 1,2,3,4,5

3.

Pedagogik relaksatsiya turlari

✍️ *Harakatli relaksatsiya- Yengil jismoniy harakatlar orqali dam olish.*

✍️ *Musiqiy relaksatsiya- Tinchlantiruvchi musiqa tinglash orqali dam olish.*

✍️ *Tasavvur relaksatsiya - Tasavvur orqali dam olish*

✍️ *Nutqiy relaksatsiya- She'r aytish, ijobiy iboralarni takrorlash, dialoglar o'ynash orqali dam olish.*

✍️ *Ijodiy relaksatsiya- Rasm chizish, bo'yash*

Moslashtiring.

Har bir fan uchun alohida summativ topshiriq belgilanadi.

1. 1-2-sinflarda

2. 3-4-sinflarda

A. 20-25 daqida

B. 30-35 daqiqa

C. 25-30 daqiqa

A) 1a 2b

B) 1c 2b

C) 1a 2c

D) 1c 2a

4. Boshlang'ich ta'limda:

- Yil davomida 2 marta (chorak yakunida) o'tkaziladi.
- Vaqt me'yori:
- 1-2-sinflarda — 20-25 daqiqa,
- 3-4-sinflarda — 30-35 daqiqa.
- Har bir fan uchun alohida summativ topshiriq belgilanadi.

Yuqori sinflarda summativ baholash uchun odatda qancha vaqt belgilanadi?

- A) 35 daqida
- B) 40 daqiqa
- C) 45 daqiqalik bir dars
- D) 45 daqiqalik 2 dars



2. Umumta'lim maktablarining yuqori bosqichida:

- 5–11-sinflarda summativ baholash odatda 45 daqiqalik bir dars davomida o'tkaziladi.

16:25

5.

Bir maktabda o'qituvchilar uchun malaka oshirish kursi tashkil qilindi. Kurs davomida ular dars jarayonida o'qituvchilar psixologiyasini chuqurroq o'rganish, ta'lim metodlarini yangilash va sinf jamoasini boshqarishda samarali usullarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu tadbirning asosiy maqsadi nimani ta'minlashdan iborat. Mazkur vaziyatda pedagoglarda qaysi jarayon amalga oshirilmoqda?

- A) Umumiy bilimlarni kengaytirish
- B) Ijtimoiy tajribani boyitish
- C) Shaxsiy qiziqishlarni rivojlantirish
- D) Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish

6.

Педагогик қобилиятни ривожлантириш – мутахассис сифатида фақат педагог (ўқитувчи)ларгагина хос бўлган қобилиятларни янада бойитиш ва такомиллаштириш учун зарур шарт-шароитни яратиш

220-maktab o'qituvchilari o'zaro kelishib, anatomik-fiziologik tayyorgarlik, mashqlar yordamida amaliy tayyorgarlik, qobiliyatlarini muayyan darajasiga erishish, doimiy ravishda o'rganib borish, mavjud qobiliyatlarni qayta tiklab borish, treninglar tashkil qilish kabi faoliyatlari maktab ichida o'zaro yo'lga qo'yishdi. Ular bu shakllardan nima maqsadda foydalanishmoqda?

- A) Umumiy bilimlarni kengaytirish
- B) Ijtimoiy tajribani boyitish
- C) Shaxsiy qiziqishlarni rivojlantirish

D) Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish

7.



10-расм. Педагогик қобилиятни ривожлантириш шакллари

Moslashtiring.

1. Korrelyatsiya

2. Integratsiya

A. Ikki ta'limiy omil yoki natijaning o'zaro bog'liqligi

B. Fanlararo yoki mavzulararo birlashtirish

A) 1a 2b

B) 1b 2a

Korrelyatsiya	Bu — ikki ta'limiy omil yoki natijaning o'zaro bog'liqligi darajasini ko'rsatadi.
----------------------	--

Integratsiya	Bu — fanlararo yoki mavzulararo birlashtirish usulidir; ya'ni o'quvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qilish uchun fanlarni birgalikda o'qitish.
---------------------	---

1. Jargon
2. Varvarizm
3. Vulgarizm
4. Konselyarizm

- A. O'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish
- B. Haqorat qilishda ishlatiladigan qo'pol so'zlar
- C. O'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin foydalanish
- D. Muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar

A) 1d 2a 3b 4c

B) 1d 2c 3b 4a

C) 1a 2b 3c 4d

D) 1b 2a 3c 4d

9.

g) nutqning sofligi (ya'ni, *nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi so'zlardan holi bo'lishi, faqat abadiy tilda ifoda etilishi*); **jargon** (*muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar*); **varvarizm** (*muayyan millat tilida bayon etiladigan, o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi*); **vulgarizm** (*haqorat qilishda qo'llaniladigan qo'pol so'zlar*) hamda **konselyarizm** (*o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish*) so'zlaridan holi bo'lishi;

Moslashtiring

1. Kamsitish
2. Bulling
3. Uyaltirish

- A. Bu doimiy ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlik, ya'ni kimnidir urish, haqorat qilish, masxara qilish yoki tahqirlash orqali unga zarar yetkazish holati.
- B. Insonni irqi, jinsi, dini, tashqi ko'rinishi, millati yoki boshqa belgilariga qarab past ko'rish yoki hurmatsizlik qilish.

C. Biror kishini boshqalar oldida noqulay ahvolga solish, xijolat qilish yoki orini toptash.

A) 1a 2b 3c

B) 1b 2c 3a

C) 1b 2a 3c

D) 1c 2a 3b

📌 Kamsitish – insonni irqi, jinsi, dini, tashqi ko‘rinishi, millati yoki boshqa belgilariga qarab past ko‘rish yoki hurmatsizlik qilish.

📌 Bulling (bulling, ingl. “bullying”) – bu doimiy ruhiy yoki jismoniy zo‘ravonlik, ya‘ni kimnidir urish, haqorat qilish, masxara qilish yoki tahqirlash orqali unga zarar yetkazish holati.

📌 Uyaltirish – biror kishini boshqalar oldida noqulay ahvolga solish, xijolat qilish yoki orini toptash.

16:25

10.

Moslashtiring.

1.Ta‘lim maqsadi

2.Ta‘lim mazmuni

A. Bu shu maqsadga erishish uchun o‘rganiladigan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar majmui.

B. Bu o‘quv jarayonida erishilishi kerak bo‘lgan natija, ya‘ni qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllantirilishi rejalashtirilganini bildiradi.

A) 1b 2a

B) 1a 2b

🔍 Ta‘lim maqsadi – bu o‘quv jarayonida erishilishi kerak bo‘lgan natija, ya‘ni qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllantirilishi rejalashtirilganini bildiradi.

🔗 Masalan: o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, matematik savodxonlikni oshirish.

🔍 Ta‘lim mazmuni – bu shu maqsadga erishish uchun o‘rganiladigan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar majmui.

🔗 Masalan: darslikdagi mavzular, o‘quv materiallari, mashqlar, tajribalar.

11.

16:25

Pedagogik madaniyat turlarini toping

1. Kasbiy-pedagogik madaniyat
2. Kommunikativ madaniyat
3. Axloqiy madaniyat
4. Estetik madaniyat
5. Huquqiy madaniyat
6. Shaxsiy madaniyat
7. Ekologik madaniyat

A) 1.2.3.4.5.6

B) 1.2.3.4.5.7

C) 1.3.4.5.6.7

D) 1.2.3.4.5

12. Moslashtiring

1. PIRLS
2. TIMSS
3. TALIS
4. PISA
5. EGRA va EGMA

A) boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash

B) 4- va 8- sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash

C) rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'quvchilarining

ish sharoitlarini o'rganish

D) 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi

fanlardan savodxonlik darajasini baholash

E) boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha

ko'nikmalariga baho beradi.

A) 1A 2B 3C 4D 5E

- B) 1B 2A 3C 4E 5D
- C) 1C 2A 3B 4D 5E
- D) 1C 2B 3A 4D 5Eg

13. Tovushning xususiyatlarini toping

- 1. Kuchi
- 2. Uchuvchanligi
- 3. Ixchamligi
- 4. Hajmi
- 5. Jarangdorligi
- 6. Kengligi

- A) 1.2.3.4.6
- B) 1.2.3.4.5
- C) 2.3.4.5.6
- D) 1.3.4.5.6

14. Moslang.

- 1. Intellektual refleksiya
- 2. Shaxsiy refleksiya
- 3. Kommunikativ refleksiya
- 4. Kooperativ refleksiya

- A. Muammolarni ijobiy hal qiladi
- B. Ziddiyatlardan janjalsiz chiqadi
- C. Jamoa bilan birgalikda harakat
- D. Bir-birini tushunib munosabat qiladi.

- A) 1a 2b 3d 4c
- B) 1a 2b 3c 4d
- C) 1b 2a 3c 4d

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayana-dilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

I.N.SEMYONOV TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN REFLEKSIYA TURLARI
1. <i>Intellektual refleksiya:</i> Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.
2. <i>Shaxsiy refleksiya:</i> O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.
3. <i>Kommunikativ refleksiya:</i> Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.
4. <i>Kooperativ refleksiya:</i> Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

27-chizma.

15.

3) Maktabda ona tili va adabiyot o'qituvchisi yosh bo'lishiga qaramay maktabda tashkil etiladigan turli tanlov, musobaqa, badiiy kechalarni tashkil qilishda vaqt reglamentiga, tadbir boshlanish, kulminatsion nuqta va natijaviy yakunga alohida e'tibor qaratadi. Bu ishidan doimo ushbu o'qituvchidan tashkiliy masalalarda boshqalar yordam so'rashadi. Ushbu vaziyatda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'lmoqda?

- A) Anglash qobiliyari
- B) bilish qobiliyati
- C) konstruktiv qobiliyat
- D) didaktik qobiliyat

- A. A
- B. B
- C. C**
- D. D

16. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan shirinsuxanlik bilan muomala qiladi. U o'z so'zlarini muloyim ohangda, iliq tabassum bilan ifodalaydi. O'quvchilar o'qituvchini hurmat qiladi va darsga zavq bilan qatnashadi, ammo ba'zida o'qituvchining ortiqcha yumshoqligidan foydalanib, darsda shovqin-suron ko'tarishadi.

Mazkur vaziyatda o'qituvchining shirinsuxanlik xususiyatining ijobiy va salbiy jihatlari qanday namoyon bo'lgan?

A) Ijobiy — o'quvchilar bilan samimiy munosabat shakllangan,

Salbiy — ortiqcha yumshoqlik intizomning pasayishiga olib kelgan.

B) Ijobiy — o'quvchilarda darsga qiziqish kamaygan,

Salbiy — o'qituvchi haddan ortiq talabchan bo'lgan.

C) Ijobiy — o'quvchilar o'qituvchidan hayiqadi,

Salbiy — darsda sovuq muhit yuzaga kelgan.

D) Ijobiy — o'qituvchi o'quvchilarga qat'iy buyruq beradi,

Salbiy — bu ularning faolligini pasaytirgan.

A. A

B. B

C. D

D. C

17. Adaptiv ta'limning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) O'qituvchining dars o'tish uslubini takomillashtirish

B) O'quvchilarni yagona metod asosida o'qitish

C) O'quv jarayonini faqat texnologiyalarga asoslash

D) Har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos ta'limni tashkil etish